**Umumta'lim maktablari 5-sinf o'quvchilarining 2024-2025 o'quv yilida tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar varianti**

**5 -___ sinf o'quvchisi** ______________________________________________

F.I.SH.

**O'quvchi to'plagan umumiy ball:_________ (maksimal ball: 50)**

**IV CHORAK BSB-4 (2-VARIANT)**

1. **Dehqonlar tabiiy suv yetarli bo'lmaganda dala va bog'larni qanday sug'oradi? Bu jarayonning nomini yozing.** (Bilish – 6 ball)

______________________________________________________________

______________________________________________________________

2. **Chiziqlar o'rniga mos so'zlarni qo'yib gaplarni to'ldiring**. (Qo'llash – 10 ball)

*katta, kichik, sho'r suv, ichimlik suvi, chuchuk suv, shakar, okeanlarda, daryolarda, sug'orish*

Yer yuzasidagi suvning ___________ qismi ___________________ to'plangan. Okean, dengiz suvlari sho'r bo'lib, undan ______________________, ovqat tayyorlash, obodonlashtirish va ______________________ maqsadlarida foydalana olmaymiz. Bu ishlar uchun _______________________________ zarur.

3. **Inson faoliyati natijasida iqlim o'zgarishiga olib keluvchi 2 (ikki)ta omilni yozing. Bu omillar qanday oqibatlara lib keladi?** (Qo'llash – 10 ball)

1) ______________________________________________________________

Omil:______________________________________________________________

Oqibati:______________________________________________________________

2)______________________________________________________________

Omil:______________________________________________________________

Oqibati:______________________________________________________________

4. **Ifloslanish turlarini misollar bilan moslashtiring**. (Qo'llash – 8 ball)

| Ifloslanish turlari | Misollar |
|---|---|
| 1) suvning ifloslanishi | a) Kislotali yomg'ir yog'ishi |
| 2) global isish | b) Avtomobillardan chiqindi gazlar chiqishi |
| 3) atmosferaning ifloslanishi | c) Okeanga neft to'kilishi |
| 4) tuproqning ifloslanishi | d) Smog |

1 _____ 2______ 3________ 4_________

5. **Ilm-fan va texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Elektromobillar benzin yoki gazdan foydalanib harakatlanadigan avtomobillarga qaraganda qanday afzallik va kamchiliklarga ega? 1ta afzallik va 1ta kamchilikni yozing. Sababini tushuntiring.** (Mulohaza yuritish – 16 ball)

1) ______________________________________________________________

______________________________________________________________

2) ______________________________________________________________

______________________________________________________________

## Javoblar va baholash mezoni

| Savollar | Javoblar | Ball |
|---|---|---|
| 1 | ***Javobi yoziladigan ochiq test.***<br>**To‘liq javob:**<br>Yomg‘ir suvi yetarli bo‘lmaganda dala va bog‘lar **<u>sun’iy usulda</u>** sug‘oriladi. Bu jarayon **<u>irrigatsiya</u>** deb ataladi. | **6 ball**<br>sun’iy usulda 3 ball<br>irrigatsiya 3 ball |
| 2 | ***Chiziqlar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yish.***<br>Yer yuzasidagi suvning *<u>katta</u>* qismi *<u>okeanlarda</u>* to‘plangan. Okean, dengiz suvlari sho‘r bo‘lib, undan *<u>ichimlik suvi</u>*, ovqat tayyorlash, obodonlashtirish va *<u>sug‘orish</u>* maqsadlarida foydalana olmaymiz. Buning uchun *<u>chuchuk suv</u>* zarur. | **10 ball**<br>Har bir to‘g‘ri qo‘yilgan so‘z - *2 ball* |
| 3 | ***Javobi yoziladigan ochiq test.***<br>1) *Omil*: Zavod/ sanoat korxonalari/ avtomobillar/ transport vositalaridan chiqqan chiqindi gazlar sabab bo‘ladi<br>*Oqibati*: Iqlim o‘zgarishi materiklarning ichki qismlarida qurg‘oqchilikka, okean va dengiz sohillarida esa toshqinlarga sabab bo‘ladi.<br>2) *Omil*: plastik chiqindilarning ko‘payishi<br>*Oqibati*: Havoga chiqarilgan zararli gazlar issiqlikni ko‘rpa misoli ushlab turadi va Yer yuzida harorat ko‘tarilishiga olib keladi. | **10 ball**<br>har bir omil- 2 *ball*<br>har bir to‘g‘ri tavsiflangan oqibat - *3 ball* |
| 4 | ***Moslashtirish***<br>**1** c **2** b **3** d **4** a | **8 ball**<br>har bir to‘g‘ri moslik *2 ball* |
| 5 | ***Ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish (16 ball)***<br>*Afzallik*: Elektromobil benzin yoki gazdan emas, balki elektr tokida harakatlanadi/ yoqilg‘i ishlatilmaydi.<br>*Sababi:* havoga zararli gazlar chiqarmaydi./qazilma boyliklar sarflanmaydi, chunki ular tugashi mumkin<br>*Kamchilik*: Quvvatlantirish<br>*Sababi:* Maxsus joylarda quvvatlantirish mumkin/ Quvvatlantirish qurilmasi hamma joyga o‘rnatilmagan/ Quvvatlashga ko‘p vaqt ketadi | 16 ball<br>*Afzallik –* 3 *ball Kamchilik- 3 ball*<br>*Har bir to‘g‘ri yozilgan sabab– 5 ball* |
| | **Jami** | **50 ball** |

1000007696720 eMaktab